

MULTIMEDIA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI SIFATLI TA'LIMNI TASHKIL QILISH

Mamajonova Maftuna Ma'ruffjonqizi

Farg'ona viloyati Rishton tuman 54- DMTT uslubchisi

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, hamda ta'lim –tarbiya jarayoni samaradorligini zamon talablari darajasiga olib chiqishda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sohaga innovatsiyalarni joriy etish eng dolzarb vazifalardandir. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda, axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari uchun bir qancha tavsiyalar yoritilgan.

Asosiy qism.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi jamiyatimizning barcha sohalari qatorida ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. Hozirgi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot insonga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

Axborotlashtirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruh xonalarini yetarlicha jihozlash, multimedia jihozlari uchun moslashtirish masalalarini hal etish, maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning AKT bo'yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi, tarbiyaviy faoliyat jarayonida har bir mavzu bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi va bolalarning yosh davrlariga mos ravishda animatsion video roliklar yaratib faoliyat olib borsa, o'quv faoliyati bolalar uchun ancha samarali va qiziqarli hamda foydali tarzda bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ya'ni multimedia vositalari orqali bilim berishning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, har bir videorolik orqali o'quv faoliyat mavzulari multfilmlar orqali bola tilida yoritiladi, bu orqali esa bolaning bilim olishga ishtiyoqi va qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar. Kompyuter o'yinlari

tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdan kutiladigan natijalar quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

✚ birinchidan, maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim sifati va bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligining yaxshilanishi hamda rivojlanish muhitining rivojlanishini ta'minlash.

✚ ikkinchidan, dasturlashning ilk bosqichlarini (algoritm) ekran orqali birin – ketin yoritib borilishi bolalarning erkin fikrlashi doirasi va dunyoqarashining kengayishiga olib keladi.

✚ uchinchidan, bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishi;

ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining yanada mustahkamlanishi va qulaylikni ta'minlashi bilan afzaldir.

Ayniqsa axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning imkoniyatlari bolalarning aqliy intellektual rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilimlariga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida bilim va ko'ikmalarni egallagan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ulardan to'g'ri foydalana oladigan 6-7 yoshli bola axborot zamonaviy, ilg'or texnologiyalar asosida ta'lim berayotgan maktab ta'limiga yetarli intellektual ko'nikmalarga ega, psixologik tayyorlangan holda yo'llanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarning oldiga katta mas'uliyat qo'yilishi bilan birga, ularning o'z ustida ishlab, AKT bo'yicha bilim saviyasini oshirishni, shuningdek ularning izlanuvchanligi va ijodkorligini talab etadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Eng avvalo, pedagog kompyuter o'yinlarini va ta'lim dasturlarini tanlashda bolaga boshchilik qilishi kerak. Buning uchun tarbiyachi kompyuter savodxonligini egallagan bo'lishi zarur, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya faoliyatida bevosita global internet tarmog'i resurslaridan unumli foydalana olishi muhim. Maktabgacha yoshdagi bola hayotida o'yin – bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu interfaol kompyuter o'yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Power Point dasturida va mashg'ulotda bolalar bilan birga o'ynash uchun yaratilgan bo'lishi zarur. Masalan, o'yin faoliyat markazida "Farqini top", "Nima kam", "Xatoni top", "Rasmni bo'ya" ta'limiy o'yinlarni animatsion tasvirlar yordamida o'ynasa mavzuga oid berilgan bilimlarni bola zo'r qiziqish bilan o'zlashtiradi. Shu bilan birga AKT bolaga interfaol

ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarni tez o'zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi.

Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishini quyidagilar asosida yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

❖ Ekranida ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animatsiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib turishida;

- ❖ Tovushida;
- ❖ Musiqada;
- ❖ Animatsiyada;
- ❖ Multifikatsiyada;

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Bu ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasining shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga media ta'lim-tarbiya berish jarayonida, foydalanish uchun qo'shimcha vositalar - kompyuter va fleshkalar, prezentatsiyalar, kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchining yoshi, darsga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlari va o'zini tutish va boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan kompyuterlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni taqqoslaydigan bo'lsak, kompyuterlashtirilgan texnologiyalarda samarali natijalar namoyon bo'ladi. Kompyuter ekranida axborotning o'yin shaklida aks etishi bolalarda shu faoliyat turiga nisbatan diqqat va qiziqishini uyg'otadi; harakat, tovush, multiplikatsiya tasvirlari bola xotirasida uzoq vaqt taassurot qoldiradi. Muammoli masalalarning qo'yilishi va ularning to'g'ri yechimini kompyuter orqali topilishi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ko'rsatilganidek, kompyuter bolaga alohida yondashuv imkonini yaratadi, bu jarayonda har bir bolada o'z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishiga imkon bo'ladi. AKTning maktabgacha ta'limga kiritishidagi dolzarb muammolardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog xodimlar kompetentligining yetarli emasligidir. Bugungi kun pedagoglari zamon bilan hamnafas ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil oshirib borishlari zarur.

Kutilayotgan natija:

Tarbiyachi pedagogning multimedia va axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi natijasida quyidagicha ijobiy samaradorligiga erishish mumkin.

Masalan;

- pedagog faoliyati rivojlantiruvchi muhitini ta'minlashga;
- Mashg'ulotlar uchun ajratilgan vaqtni tejashga;
- Mashg'ulotlarni "o'yin" tarzida olib borishga;
- O'qitishning motivatsiyasini kuchaytirishga;
- Bolalarni turli ko'rinishidagi faoliyat turlariga jalb qilishga;
- Fikrlash, mulohaza qilish va bahslashishga;

Multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning bilim olishida, mavzuni o'zlashtirishga qiziqishlarini ortishida; mustaqil ravishda o'qish, sanash va qo'shishni o'rganishlarida; predmetlar, sonlar orasidagi bog'liqlikni tushunishlariga katta yordam beradi. Bundan tashqari, media vositalari bolalarda atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tadqiq qilishlari va kuzatishlariga; mulohaza qilish va fikrlash qobiliyatlarini ortishiga olib keladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'z navbatida bir qancha xususiyatlarni o'z ichiga olib, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek, ta'lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va turli shakllarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- pedagog avvalo axborot texnologiyalari haqidagi bilimlarni egallashi va ularni amaliyotda qo'llay olishi kerak;
- Pedagog bolalar uchun maqbul multimedia vositalarini tanlashi kerak, ya'ni bolalarning o'zlari uchun qulay va yoshiga mos vositalardan foydalanishi;
- O'quv tarbiyaviy faoliyatlarni multimedia vositalaridan foydalanib bolalar uchun tushunarli va qiziqarli usullarda tashkil etishi;
- Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish orqali ularda kreativ g'oyalarni uyg'otuvchi omillarni shakllantirishi kerak;

Bu jarayonida ularning ota-onalari va tarbiyachilari o'zaro hamkorlikda ishlashlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilar olgan bilimlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonlik muammolariga duch kelamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirishni ta'minlashdan iborat.

Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari dasturli va rolli multimedia vositalaridan har bir mavzuga doir videolar, slaydlar va turli zamonaviy texnologiyalar

asosida materiallar tayyorlab kelib o'quv faoliyatlari jarayonlarida qo'llashlari mumkin. Kompyuterdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la ma'lumotga ega bo'lgan holda, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish uchun biz, kompyuter va dasturlash mahoratini rivojlantirishimiz, fotosurat va videolarni tahlil qilishni o'rganishimiz, shuningdek, media vositalari orqali ma'lumotlarni topishimiz va qo'llashimiz kerak bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia savodxonligini oshirishda tarbiyachi bolalar bilan turli faoliyat jarayonlarida o'tkazgan to'garaklarida bolaning yoshini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yoshiga mos qilib zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni va xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Tarbiyachi pedagog qanchalik ijtimoiy madaniyatga ega bo'lsa, u ta'lim –tarbiya berayotgan tarbiyalanuvchilar shunchalik odob-axloq tushunchalariga ega bo'ladilar. Chunki pedagog bolaning har tomonlama riojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Zero, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ham kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga maktabgacha ta'lim bosqichidanoq sifatli ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 16- dekabrda
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonunining 53-moddasi <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta'lim-tashkilotlarining-ta'lim-jarayonida-multimediaga-asoslangan-kompyuter-o'yinlarini-qo'llash/viewer>
3. <https://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumiy-orta-ta'lim/media-va-axborot-savodxonligi>.